

**TADBIRKORLIK SHAXSI VA FAOLIYATINING PSIXOLOGIK  
JHATLARI**

*Abdullov Komiljon Fayzulloevich*

*Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi*

*Annotatsiya: mazkur maqolada iqtisodiy psixologiya mazmunida tadbirkorlik faoliyati va shaxsiy-kasbiy xususiyatlarining o'ziga xos jihatlari yoritilgan.*

*Kalit so'zlar: iqtisod, innovatsiya, faoliyat, tadbirkorlik, psixologiya, omil, motivatsiya, raqobat, taraqqiyot.*

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ  
ЛИЧНОСТИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

*Абдуллоев Комилжон Файзуллоевич*

*Самостоятельный соискатель*

*Бухарского государственного университета*

**Аннотация:** в данной статье рассмотрены аспекты предпринимательской деятельности и личностно-профессиональные характеристики в контексте экономической психологии.

**Ключевые слова:** экономика, инновация, деятельность, предпринимательство, психология, фактор, мотивация, конкуренция, развитие.

**PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ENTREPRENEURIAL  
PERSONALITY AND ACTIVITY**

*Abdullov Komilzhon Faizulloevich*

*Independent applicant at Bukhara State University*

*Abstract: this article examines aspects of entrepreneurial activity and personal and professional characteristics in the context of economic psychology.*

*Key words: economics, innovation, activity, entrepreneurship, psychology, factor, motivation, competition, development.*

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 maydagi PF-5718-son "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida tadbirkorlarning, shu jumladan, chet ellik investorlarning murojaatlari bilan ishlashni tashkil etish sifati va tezkorligini oshirish, ular bilan ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqotni ta'minlash, ularning qonuniy talablarini amaliy va samarali ro'yobga chiqarish va muammoli masalalarni hal etish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga real hissani ko'paytirish, aholining ish bilan bandligini oshirish va uning moddiy farovonligini o'stirish asosiy maqsad sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan tadbirkorlarning xalq bilan muloqoti, ularning shaxsiy psixologik xususiyatlari va ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq faoliyatlarini o'rganish muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Tadbirkorlik psixologiyasi sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar iqtisodiy psixologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda tadbirkorlik psixologiyasining turli jihatlarini qamrab oluvchi ma'lumotlar jadal sur'atlar bilan to'planib bormoqda. Shu bilan birga, tadbirkorlik psixologiyasida tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qiluvchi va ko'rsatuvchi nazariy va empirik asoslangan konsepsiyalar ozchilikni tashkil etadi.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Mamlakatimiz olimlari O.E.Hayitov "tadbirkorlik faoliyati motivatsiyasi"ni, Sh.S. Shoyimova "tadbirkor o'zbek ayollari portretini"ni, Sh.M.Ulug'ova "bozor iqtisodiyotiga xotin-qizlar moslashuvi"ni, A.U. Yelmurotova "kasanachi ayollar psixologiya"ni tadqiqiga doir izlanishlarida qisman asoslab o'tishgan. Shuningdek, iqtisodiy munosabatlar kontekstida V.I.Karimova shaxsning "reklamaga munosabati", N.Sh.Umarova shaxs "iqtisodiy munosabatlar tizimi", D.X.Safarov "sotuvchi-xaridor diadasi munosabatlari", M.Xalimova "Tadbirkorlik faoliyatida shaxslararo munosabatlarga oid mas'uliyatni oshirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari"ning mazmun va mohiyatini o'z tadqiqotlarida yoritishgan hamda ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik jihatdan tahlilini bayon qilishgan.

Rossiyalik olimlardan V.Avtonomov, V.Aseev, T.Zaslavskaya, V.Radaev, J.V. Maslikova, Yu.V.Sherbatix, G.L. Bardier, Ye.V. Belovalar iqtisodiy

psixologiya, jumladan tadbirkorlarning muloqot va boshqaruv psixologiyasiga doir qator tadqiqotlarni amalga oshirganlar.

Chet ellik olimlar A.L.Kalleberg, K.T.Leicht, R.D.Hisrichlar kabi tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ko'rsatib o'tishgan.

Shuningdek, A.Gibb, M.John, R.Kreitner, Keenan, Riches, S.Moscovisi, M.Rokeach, J.Sey, N.Davies kabilarning tadqiqotlarida tadbirkorlik psixologiyasi, tadbirkorlik ta'limini tashkil etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Adabiyotlar tahlili asosida zamonaviy iqtisodiy psixologiyaning: **ijtimoiy-psixologik** (tadbirkorlarning yangi ijtimoiy-psixologik qatlam sifatidagi faoliyati va ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotga ta'siri); **faoliyatli** (tadbirkorlik faoliyatining maqsadi, predmeti, vositalari, motiv); **kasbiy** (tadbirkorlik kasbiy-mehnat faoliyati sifatida); **shaxsiy** (tadbirkorlarning shaxsiy xususiyatlari); **tashkiliy-loyihalovchi** (tadbirkorlik kar'erasini rejalashtirish va qurish) xususiyatlari ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

## **NATIJALAR**

Yuqoridagi xususiyatlar asosida, tadbirkorlik subekti faoliyatining ikki jihati farqlanadi. Bular: xususiy tadbirkorlik faoliyati (yangi tuzilma tashkil etish hamda uning rivoji va taraqqiyotini ta'minlash) va menedjment (tashkil etilgan tuzilma ichida tartib va barqarorlikni ta'minlash). Zamonaviy tadbirkor yuqoridagi ikki jihatni uyg'unlashtirgan holda o'z faoliyatini amalga oshiradi.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyati o'z navbatida ikki maqsadni nazarda tutadi. Bularning birinchi iqtisodiy maqsad, ya'ni foyda olish, daromad qilish bo'lsa, ikkinchi psixologik, ya'ni shaxsni rivojlantirishga qaratilgan maqsad hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyatining predmeti turli-tuman bo'lib, tadbirkorlik faoliyati turlari (ishlab chiqarish, savdo, kredit)ga bog'liq bo'ladi. Tadbirkorlik faoliyatining umumiy xususiyatlaridan biri tadbirkorning o'ziga xos shaxsiy xususiyati, bozor muhiti hamda tadbirkorlik madaniyati asosidagi innovatsion xarakterga kasb etganligidadir.

Tadbirkorning innovatsion faoliyatini amalga oshirishni uning shaxsiy xususiyatlaridan: tashabbuskorlik, idrok eta olish qobiliyati, avtoritet, intuitsiya, atrofdagilariga ta'sir ko'rsata olish xususiyatlari ta'minlaydi.

Tadbirkor doim ekstremal holatlarda faoliyat yuritib, uning muvaffaqiyati hamda resurslariga talabgor, raqobatchi xo'jalik yurituvchi subektlarga doimiy qarama-qarshilik ko'rsatib, ushbu qiyinchilik va to'siqlarni yengishga harakat qiladi.

Tadbirkorning ijtimoiy mavqei uning nufuzi, muvaffaqiyati g'amda intiluvchanligi asosida belgilanadi. Shu sababli uning ijtimoiy mavqei kasbiy kompetentligi asosida yuz berayotgan voqealarga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan mos kelishi kerak. Aks holda, tadbirkor ijtimoiy mavqeini cheklaydigan, harakatlari faolligini namoyon qiladigan shaxsiy samaradorlik hamda psixologik muhofaza inqirozini boshdan kechirishi mumkin<sup>1</sup>.

## **MUHOKAMA**

Iqtisodiy psixologiya mazmunidagi konseptual birlikning mavjud emavsligi tadbirkorlik psixologiyasining yo'nalishlari va rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirkorlik insonning shaxsiy tashabbusi sifatida amalga oshiriladigan, o'z nomidan, mol-mulki ma'suliyati va xavf-xatari asosida shaxsiy daromad olishga yo'naltirilgan faoliyat hisoblanadi.

Tadbirkorlik faoliyati predmeti ancha qamrovli hamda xilma xil hisoblanib, tadbirkorlik faoliyati shakliga bog'liq bo'ladi

O'z navbatida, tadbirkorlik faoliyati nafaqat kasb, balki maxsus hayot tarzi hamdir.

Shu nuqtai nazardan tadbirkorning kasbiy jihatdan bilim, ko'nikma va malakalari uning iqtisodiy muvaffaqiyati modeliga mos keluvchi individual hayot yo'li subekti refleksiyasi, muayayn motivatsion-mazmunli hamda qadriyatli yo'nalganlik mazmuni bilan boyitilishi lozim.

---

<sup>1</sup> Щербакова Т.Н., Седлецкая Л.В. Психологическая компетентность предпринимателя как субъекта социального взаимодействия. – Ростов н/Д., 2003. – 192 с.

Tadbirkorlik faoliyatini tavsiflovchi umumiy jihatlarga: ushbu faoliyatning innovatsion xususiyati, uni standartlashtirish va algoritmlashning qiyinligi kiritishimiz mumkin.

Bundan tashqari, daromad olish bilan bog'liq iqtisodiy va shaxsiy rivojlanish bilan bog'liq psixologik, tadbirkorlik faoliyatining maqsadlari mavjud. Yuqori darajada subyektiv ishtirok etishni talab qiluvchi tadbirkorlik faoliyati shaxsning ichki zaxiralarini faollashtiradi va safarbar qiladi, kasbiy faoliyat tizimini takomillashtirishga qiziqishni oshiradi, kasbiy rejalarni amalga oshirish natijalari uchun mas'uliyatni oshiradi.

Tadbirkorlar - bu mulkka (kapital, resurslar, ishlab chiqarish vositalari) egalik qiluvchi va uni boshqaradigan, ma'lum bir korxonaga, daromad olish uchun yollanma mehnatdan foydalangan shaxslar (Pozdnyakov V.P., Filinkova E.B.) hisoblanadi. Tadbirkor jamiyatning iqtisodiy sohasida tavakkalchilik va taraqqiyot funksiyalarini o'z zimmasiga oladi, noaniqlik, nomutanosiblik va kafolatlar yo'qligi sharoitida ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning yangi shakllarini yaratadi.

Istalgan kasbiy faoliyatning universal modeli majud bo'lib u 3 ta komponent, ya'ni tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bular:

1. Kasbiy maqsad va vazifalarni belgilash;
2. Vazifalar yechimini yechishga qaratilgan yo'llar va vositalarni aniqlash
3. Faoliyat natijasini tahlil qilish va bag'olash.

Shu bilan birga kasbiy faoliyatning asosiy tushunchasi sifatida mutaxassis-tadbirkorning faoliyat tizimi e'tirof etilib, ushbu tizim shaxsiy-kasbiy yo'nalganlik, kasbiy kompetentlik hamda individual psixologiya xususiyatlarini o'zida mujassam etadi<sup>2</sup>.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati ko'p jihatdan tadbirkor shaxsining dastlabki motivlari va faoliyatining yakuniy maqsadlari bilan belgilanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar tadbirkorlik faoliyatining o'ziga xos xususiyati sifatida uning innovatsion xarakterini ko'rsatadilar.

Ushbu tadqiqotlarda tadbirkor ishlab chiqarish omillarining doimiy yangi

---

<sup>2</sup> *Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособности личности. – М.– Воронеж, 2002. – 400 с.*  
[www.tadqiqotlar.uz](http://www.tadqiqotlar.uz)

kombinatsiyasi orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan innovatsiyalarni amalga oshiradigan yangi shaxs sifatida qaraladi. Tadbirkor mavjud an'anaviy qoliplarga amal qilmaydi va iqtisodiy tizimga dinamiklik va rivojlanish qo'shadi. Tadbirkorning innovatsion faoliyati imkoniyati tashabbuskorlik, idrok etish keskinligi, obro'-e'tibor, oldindan ko'ra bilish qobiliyati, boshqalarga ta'sir o'tkazish qobiliyati kabi shaxsiy parametrlar bilan ta'minlanadi.

## **XULOSA**

Tadbirkorlik faoliyatining samaradorligi "karera" (martaba) va "muvaffaqiyat" tushunchalar bilan belgilanadi.

Tadbirkor "karyera" (martaba) si - bu shaxsiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga, ijtimoiy jihatdan jamiyatda tan olinishiga va moddiy farovonlikka erishishga qaratilgan hayot tarzi bilan birlashtirilgan tadbirkorlik faoliyatidagi individual yo'l hisoblanadi. Tadbirkorlik karyerasining o'ziga xosligi shundaki, u insonning shaxsiy sa'y-harakatlari natijasidir.

Karyera tushunchasi ijtimoiy-psixologik tarkibiy qismni o'z ichiga oladi, chunki insonning muvaffaqiyatini baholash ushbu hodisani jamoatchilik fikrida va birinchi navbatda, xuddi shu faoliyat sohasida ishlaydigan shaxslar guruhining fikriga ko'ra ob'ektivlashtirishni nazarda tutadi. Psixologik nuqtai nazardan, haqiqiy martaba nafaqat shaxsning faoliyatdagi rasmiy ko'tarilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlarni, balki shaxsiy va sub'ektiv faoliyat natijalarining rivojlanishini ham nazarda tutadi.

Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati uning natijasiga qisman hissa qo'shadigan ko'plab shaxsiy omillar bilan belgilanadi. Ularga: o'z sub'ektining affektiv-irodaviy sohasining rivojlanish darajasi, bilim qobiliyatlari, o'z-o'zini anglash, o'ziga bo'lgan munosabat xususiyatlari, shaxsiy motivatsi, faoliyat natijasini nazorat qilish, ijobiy muloqot qobiliyatlarini kiritishimiz mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Митина Л.М. Психология развития конкурентоспособности личности. – М.– Воронеж, 2002. – 400 с.

2. Raximov, D. (2018). Tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining maxallay sharoitda o'rganish. Scienceweb academic papers collection.

3. Xayntov O.E., Ochilova G.O. Tadbirkorlik psixologiyasi: O'quv qo'llanma. 1-kitob. Oliy o'quv yurtlari magistratura boskichi talabalari uchun// Prof. V.M.Karimovaning umumiy taxriri ostida. — T.: «Fan va texnologiya», 2008. -144-6

4. Шербакова Т.Н., Седлеская Л.В. Психологическая компетентност предпринимателя как субъекта социального взаимодействия. – Ростов н/Д., 2003. – 192 с.